

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

ODINA RUSTAMJONOVA

ORZULARIM

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Ma'mura ZOHIDOVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijodkorlari ning Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlakatimizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod maktablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lim jarayonida tilimiz va milliy adabiyotimizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlaridan badiiy ijod bilan shug'ul-lanayotgan ko'plab yoshlari yetishib kelmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola etilmoqda. Ulardan biri **Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi** o'quvchisi **Odina Rustamjonovadir**. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksaltirish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulogidan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-9372-9-3

© O.Rustamjonova, 2024
© "Adabiyot", 2024

VATANIM

Shonli o'tmishingga tashlasam nazar,
Yuragim tubida ajib his kezar,
Dovruqli tarixing qalbimni bezar,
Ey aziz Vatanim, ulug' Vatanim!

Bostirib boshingga, eh, kim kelmadi?
Bir parcha tuprog'ing bergim kelmadi,
Dushmanni yurtimga qo'ygim kelmadi,
Ey aziz Vatanim, ulug' Vatanim!

Mustaqillik berdi senga bir najot,
Musaffo osmonda yozding-ku qanot,
Endi mening uchun yorqin bu hayot,
Ey aziz Vatanim, ulug' Vatanim!

Kelajaging porloq yonib turibdi,
Xalqing olg'a tomon shaxdam yuribdi,
Baxting, iqbol, toleng chindan kulibdi,
Ey aziz Vatanim, ulug' Vatanim!

O'ZBEKISTON YOSHLARI

Biz – kelajak umidi,
O'zbekiston yoshlari.
Bir-biriga mehrli,
Do'sti-yu jondoshlari.

Tashnadirmiz ilmga
Nurafshondir yo'llimiz.
Qoyil o'zbek elimga,
Go'zal o'ng-u so'llimiz.

Ishongan bizga Vatan,
Ko'raylik quvonchini.
Oqlaylik a'llo o'qib,
Yurtboshim ishonchini.

ZULFIYA

Mashaqqatli hayot yo'lida
Kuch to'plading, chopding, urinding.
Yuragingning tubsiz qaridan
Yoring chun chin dildan kuyinding.

Qadding baland tutding sen yana,
Qaynab toshdi ko'ngilda so'zing.
Qalam olib ijod boshlading,
Umid berdi o'g'ling, ham qizing.

Butun dunyo tanidi seni,
Bo'la olding mashhur shoira.
Ona xalqim ardoqlar doim,
Zulfiyasin unutmas sira.

MARD O'G'LONLAR

Vatanimiz posboni,
Mard va botir akalar.
Doim hushyor qalqoni,
Jasur qo'rmas akalar.

Yurtga g'anim ko'z tiksa,
To'xtatmasdan qo'ymarysiz,
Vatan uchun jon fido,
Qilishdan ham to'ymaysiz.

Sizda bor Temur qoni,
Manguberdi iymoni,
Vatanning qahramoni,
Yurtning chin sharaf-shoni.

Tashakkurim sizlarga,
Baxtimizga sog' bo'ling,
Siz borsiz, Vatan tinchdir,
Doim e'zozda yuring!

BO‘STONLIQ

Tog‘lar oshib keldim Namanganimdan,
Bo‘stonliq atalmish go‘zal maskanga.
Yuragim hapriqar quvonganimdan,
Pokiza havosi xush yoqar tanga.

Qo‘limga qalamni tutqazdi olam,
She’riyat maydoni ko‘nglim tortmoqda.
Tog‘lar ey so‘zimga beradi jilo,
Qalbda buyuk hislar ildiz otmoqda.

Oynadan boqaman go‘zal tabiat,
Bulbullar sayrashi biyrondir biyron.
Jo‘r bo‘lib qo‘shiqlar kuylashdir niyat,
Ilhom mehmonimdir yonimda har on.

Betakror nafosat, beg‘ubor osmon,
Hayot bor ne‘matin etgandek tortiq.
Har go‘siasi endi aziz, qadrdon,
Menga kengliklardan so‘ylar Bo‘stonliq.

TASODIF

Faqat tasodifan duch kelamiz, eh,
Taqdirning o'yini atalgan bizga.
Yoningizga bormoq istaydi ko'nglim,
Aqlim yo'l bermaydi so'zlashga sizga.

Faqat tasodifan duch kelamiz, eh,
Ko'zlarda yosh bilan, qalblarda titroq.
Kelaman deysiz-u, kela olmaysiz,
Masofalar yaqin, lek ko'ngil yiroq.

Faqat tasodifan duch kelamiz, eh,
Quvonch ulashmaysiz, netay bir hovuch.
Ko'zimga termilib "Sog'indim" deya,
Biror bor bo'l maysiz dardimga ovunch.

Faqat tasodifan duch kelamiz, eh,
Ikkita g'ururli, o'zicha osmon.
Men salom beraman, olasiz alik
Va yana ketamiz biz ikki tomon.

Faqat tasodifan duch kelamiz, eh,
Hech kimsa bizlarni tanishlar demas.
Bilaman qachondir tan olamiz tan,
Bizga qismatligin baxt tasodifdan.

O'ZBEK

Muhammad Yusuf she'riga nazira

O'zbekka o'xshashin topmoq muammo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek,
Qiyosi yo'q uning, mehri bir daryo,
Dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek.

O'tganlar dilida yashar barhayot,
Yodin tildan qo'ymay, ruhin etar shod,
Unutish odati ular uchun yot,
O'tmishin e'zozlab yashaydi o'zbek.

Quradi binolar farzandlar uchun,
Kamoliga berar bor quvvat, kuchin,
Go'zal qizlarini maqtamay nechun,
Hayotda baxt izlab yashaydi o'zbek.

Shoirlar qo'liga olsalar qalam,
Unutilib bo'lar tashvishlar-u g'am,
Orzu-umidlari hamisha hamdam,
Ertasini o'ylab yashaydi o'zbek.

Ota-onha uchun beg'araz xizmat,
Bobo-momosiga doimo hurmat,
Hatto kichiklari ko'radi izzat,
Bolam-chaqam deya yashaydi o'zbek.

Hatto dushmanga ham qilmaydi hasad,
Uning uchun yotdir ig'vo, fisq-fasod,
O'zi hur, Vatani ozod-u obod,
El-u yurti uchun yashaydi o'zbek.

YOMG'IR

Osmanni nogahon qopladi bulut,
To'xtamasdan yomg'ir yog'a boshladi.
O'yladim Allohim berayapti qut,
Uni farishtalar yerga tashladi.

Yuragim dupurlab urdi shu zamon,
O'yladim kamalak bo'y cho'zarmikan.
Olamni yog'duga to'ldirib shu on,
Barchaga quvonch-baxt ulasharmikan.

* * *

Bugun baxtdan mastman, sarxushman go'yo,
Qalbim quvonchlarga to'lib ketyapti.
Ko'zimdan ko'rinish turibdi olov,
Yuragim dupurlab urib ketyapti.

Ro'yobga chiqyapti barcha orzular,
Yangi maqsadlarni ko'zlamoqdaman.
Shuncha ne'matingga shukur, Allohim
Umrimni baxt bilan bezamoqdaman.

Ming bor shukr deyman, ming bora shukr,
Hayotim quvonchga chindan to'lmoqda.
Yuzimdan tabassum arimas endi
Toleyim quyoshday har kun kelmoqda.

Shukur deyman, Rabbim, o'zingga shukr!

QO'RQAMAN

Qo'rqaman, insonning yolg'onlaridan,
Tortib olmasmikan deya borimni.
Armon ko'chalarga uloqtirib, so'ng
Qiyma-qiyima qilsa mushtdek jonimni.

Qo'rqaman, yulduzsiz qaro tunlardan,
Ko'zim bog'langanga o'xshaydi go'yo.
Ta'qib qilar meni qandaydir sharpa,
Qo'rqaman, bilmayman, balki bu ro'yo?

Qo'rqaman, vijdonsiz, insofsizlardan,
Ochmasmikan deya g'am eshiklarin.
Parcha-parcha qilib qo'ymasin deyman,
Endi o'rnatgandim qalb ko'zgularin.

Qo'rqaman, o'ylardan, xayollardan ham,
Meni turfa yerga boshlab ketadi.
Javobsiz, bir olam savollar bilan,
Kimsasiz cho'llarga tashlab ketadi.

Qo'rqaman, kimgadir bir so'z degani,
O'qdek botmasmikan qalbiga deya.
O'zimni unutib qo'yaman gohi
Boshqa odamlarning g'amini yeya.

Qo'rqaman, qo'rqaman, rosti, qo'rqaman!

ANDIJONGA SAYOHAT

Bugun borib Andijon tomon,
Qaytdik rosa dilni chog' qilib.
Do'stlar bilan eson-u omon
Bu damlarni omonat bilib.

Andijonning faxri, g'ururi,
Yotar bunda Muhammad Yusuf.
Uning ruhin shod etish uchun,
Namangandan bordik gul uzib.

Yoshlik davri o'tgan qishloqni,
Uy hovlisin etdik ziyorat.
Tahsil olgan maktabin ko'rib,
Ko'ngil taskin topdi, nihoyat.

Shoir go'yo tirikday, tirik
Yurgandayin qadr-qimmatda.
Ilhom har dam hammaga sherik
She'r bulog'i bor Marhamatda!

ASIRA

Asta oldim qo'limga qalam,
Ilhom ketmas qalbimdan sira.
Nelarnidir o'ylab buncha ham,
Xayollarga bo'ldim asira.

O'ylar boshlar meni har tomon,
Turfa fikr kelar boshimga.
Yurak rosa qo'msashi yomon,
Sen kelmasang bir bor qoshimga.

Qoq yarim tun, chiqib hovliga,
Yulduzlarga qilaman havas.
Yana ko'kda o'zgacha tanho,
Oyga so'z ham qotaman birpas.

Erta tongga yarashar salom,
So'ng chiqaman hovli – bog'imga.
Har gul menga beradi ilhom,
She'r to'qitar yoshlik chog'imga.

TABRIK

Bu kuni siz uchun sayrar bulbullar,
Jilolanar ko'kda rangli kamalak.

Bu kuni siz sabab quvonar dillar,
Tug'ilgan kuningiz bo'lsin muborak!

Ko'rsam bas hamisha sog'-u salomat,
Siz uchun qalbimda eng ezgu tilak.
Hamroh bo'lsin doim baxt, quvonch, omad,
Tug'ilgan kuningiz bo'lsin muborak!

O'zgalar istasin sizga o'xshashni,
Sizga havas qilsin, hatto kapalak.
Ularga o'rgating qanday yashashni,
Tug'ilgan kuningiz bo'lsin muborak!

O'zingizni asrang-avaylang doim,
Sizni deb uradi har lahza yurak.
Hech qachon ko'nglingiz chekmasin dard, g'am,
Tug'ilgan kuningiz bo'lsin muborak!

ONA

O'tar yillar, o'tar fasllar,
O'zgarmoqda insonlar, qara.
Kechdi yana necha asrlar,
O'zgarmadi mehribon ona.

Farzandining istab kamolin
Fido qilar gul umrini ham.
Lekin bizlar so'rmasdan holin
Ko'zlariga indiramiz nam.

Kuydiradi „bolam“ deb jonin,
Mehrin berar ayamasdan hech.
O'tkazmasdan umr imkonin
Qadrlaylik bo'lmasidan kech.

Har bir so'zin ilib quloqqa,
Bor mehrimiz unga beraylik.
Aylantirmay yoshin buloqqa,
Onamizni asrab yuraylik!

DO'STLARIM

Do'stlarim juda ko'p
Har birlari o'zgacha.
Ayrilmaylik hech qachon,
Hatto qiyomatgacha.

Mehribondir barchasi,
Bol tomadi so'zidan.
Yaxshilikni o'qiysiz,
Qora, shahlo ko'zidan.

Yaxshi kunda yondoshim,
Yomon kunda sirdoshim.
Menga sodiq chin do'stlar,
Ulardir ko'makdoshim.

Shukronalar aytaman,
Allohimga ming bora.
Doimo sog' bo'lishsin,
Ularsiz yurak pora.

SHUKRONA QILING

Eshnazar Jumaqulov she'riga nazira

Yuragingiz urib turganda,
Ko'zlarizingiz ko'rib turganda,
Oyog'ingiz yurib turganda,
Har lahzani g'animat biling,
Yaratganga shukrona qiling.

Osmonimiz musaffo har on,
Ko'paymasin yurtda hech yomon,
Sog'-salomat bo'lingiz, omon,
Har lahzani g'animat biling,
Yaratganga shukrona qiling.

Razillikdan uzoq yuringiz,
Yaxshilikka to'lsin dilingiz,
Nurli bo'lsin har dam yuzingiz,
Har lahzani g'animat biling,
Yaratganga shukrona qiling.

Do'st bo'l mangiz razil insonga,
Mehr bering keksa-yosh jonga,
Sodiq yashang O'zbekistonga
Har lahzani g'animat biling,
Yaratganga shukrona qiling.

KAPALAK

Qanolrlaring ipakdek nozik,
Maftunkorsan buncha kapalak.
Umr senga qilarmi ozlik,
Neni izlab bo'lasan halak.

Har lahzani bilib g'animat,
Guldan-gulga uchib yurasan.
Vaqtdir senga bebahon ne'mat,
Go'zallikni quhib yurasan.

Kel, ikkimiz bo'lamiz chin do'st,
Birga-birga qilaylik sayr.
Bir kam dunyo bordir kam-ko'sti,
Faqat bir kun... armonli xayr!

ORZULARIM

Men bu go'zal diyorning,
Shu chamanning qiziman.
Bobolarim avlodi,
Men ularning iziman.

Orzularim limmo-lim,
Maqsadlarga yetaman.
Yangi O'zbekistonni,
Dunyoga tanitaman.

Yetti tilni o'rganib,
Bo'laman zo'r tarjimon.
Maqsadlarim yo'lida,
To'xtamayman hech qachon.

Kitob hamroh, chin do'stim,
Tashnadirman bilimga.
Ilm-la unib-o'sdim,
Farzanddirman elimga.

Vatanimning ertasi
Bugunidan nurafshon.
Ishonchin oqlab har kun
Ko'nglim tortadi ravshan.

ONAM TABASSUM QILSA

Barcha g'am-anduhlarim,
Unutilar bir zumda.
Tabassum qilsa onam,
Quvonch porlar ko'zimda.

Mijjamda qalqisa yosh,
Qalbim to'lsa alamga,
Bor hasratim aytaman,
Faqtgina onamga.

Do'stlarimdan pand yesam,
Qilsa bari xiyonat.
Onam aytar: "Jon bolam,
Sabr yaxshi, qil toqat".

Siz musavvir, siz rassom,
Hayotimga rang bergen.
Jajjigina qalbimni,
Baxt, quvonchga to'dirgan.

Onajonim, onajon,
Doim bo'ling sog'-omon.
Siz bilan yorug' jahon,
Kamlik ko'rmang hech zamon!

HAYIT AYYOM MUBORAK

Do'st-u qadrdonlarga,
Mehribon insonlarga,
Barcha musulmonlarga,
Hayit ayyom muborak!

Qalbi nurga to'lganga,
Hamdard, holing so'rganga,
Zakot, ushr berganga,
Hayit ayyom muborak!

O'qib Qur'on kitobni,
Mustahkamlab imonni.
Birdek ko'ring insonni,
Hayit ayyom muborak!

Nuroniy bobolarga,
Mehribon momolarga,
Barcha musulmonlarga,
Hayit ayyom muborak!

NAMANGAN

Gullar shahri o'zingsan,
Go'zalliklarga makon.
O'zbekiston yuzisan,
Chiroylisan, Namangan.

Har jabhada, har ishda
O'zin ko'rsatar yoshlari.
Nuroniylar bizlarni,
Yaxshilik tomon boshlari.

Oboddir ko'chalari,
Gul-u rayhon hovli-uy.
Betakror Namanganni,
E'zozlagin, faqat suy.

Yuksalyapti kundan-kun,
Maftunkor har go'shasi.
Taralmoqda har tomon,
Tinchlikning ashulasi.

Nur taralar yuzidan,
Insonlari mehribon.
O'zbekiston yurtida,
Eng go'zali Namangan!

ILHOMIM

Yarim kecha, tong yaqin,
Uxlay olmay bedorman.
Bu holatga tushishga,
Sababchisi faqat san.

San xayolim oglansan,
Yolg'iz o'zim netaman?
O'zing o'yla, she'rlarni,
Sansiz qanday bitaman?

Qo'l ushlashib ikkimiz.
Xayollarda chopamiz.
Birga har bir insonning,
Qalbiga yo'l topamiz.

San mening ilhomimsan,
O'y-xayolim o'g'risi.
Ijod qila olmasam,
Qiynalaman to'g'risi.

Yarim kecha, tong yaqin,
Uxlay olmay bedorman.
Bu holatga tushishim,
Sababchisi faqat – san.

DO'STIMGA

Ey do'stim, yashagin Vataning uchun,
Bobolaring ruhin etgin doim shod.
Izlanib, ko'rsatgin o'zbeklar kuchin,
Yomonlik, razolat bo'lsin senga yot.

Faxrlansin xalqing, ona Vataning,
Shu bizning farzand deb suyunsin, suysin.
Quvonchdan chaqnasin, munchoq ko'zlarining,
Ko'rganlar havas-la faxrlar tuysin.

Yaxshilikni qilgin o'zing-chun odat,
Ota-onan pandin dilda saqlagin.
Vatanni asragin, ko'rsat sadoqat,
Ularning ishonchin, albat, oqlagin.

Vatan deya yasha, xalqim deb yasha,
Najmiddin Kubrodek yurtingni sevgin.
Sening-chun tabarruk asli har go'sha,
Vatanni onangdek muqaddas bilgin.

BUGUN BOSHQACHA

Baxtlarga burkandi bog'bonning bog'i,
Biram biyron-biyron bulbullar bugun.
Besabr bo'lyapti, betoqat barcha,
Bahoriy bezaklar boshqacha butun.

Baxtsizlik berkindi boshini bukib,
Bahslashar bedana bo'lib besabr,
Baxtsizlik bo'ljadi bugun berahm,
Betakror borliqda bari beta'bir.

Bugun boshqachadir bari, barchasi,
Boglaring bag'rida betimsol bol-a.
Badbaxt, beadablar bo'ldi bechora,
Baxtga burkanyapti beg'ubor bola.

Bugun boshqachaman, boshqacha bir oz,
Baxtim bo'layotgandek boshimga bolish.
Bahordek betimsol, boqiy barkamol,
Budir baxt bobida bearmon bo'lish.

ONA TILIM

Har so'zingda bor ma'no,
Quvontirasan dilim.
O'rganib bo'ldim dono.
O'zbek tilim, o'z tilim.

Bobolarimdan meros,
Qancha suysam, shuncha oz.
Bulbuldayin sayratgan
O'zbek tilim, o'z tilim.

Sen muqaddas, sen aziz,
Ildizi but, shubhasiz,
Navoiyni yayratgan,
O'zbek tilim, o'z tilim.

Qo'llimga qalam tutgan,
Qanotli so'zlar kutgan,
Qo'lllar o'zi Yaratgan,
Ona tilim, jon tilim.

SHUNDAY KUNLAR KELADI BIR KUN

Orzularim limmo-lim meni,
Izlanaman, to'xtamay kun-tun.
Erishaman barcha maqsadga,
Shunday kunlar keladi bir kun.

Onam so'zi oltindan a'lo,
O'gitlarin yodda saqlayman.
Intilaman kelajak sari,
Farzand burchim, albat, oqlayman.

Men shoira, oddiy qizaloq,
Ulg'ayaman, topaman kamol.
Yetti tilni o'rganib puxta,
Ko'rsataman yurtimda jamol.

Orzu-maqsad dilimda qat-qat,
Harakatni boshlayman bugun.
Baxt bo'ladi mehmonim faqat,
Shunday kunlar keladi bir kun.

ISHONAMAN

Mayli bugun kech qolyapti baxt,
Do'stlar bizni tashlab ketyapti.
Hamma o'zin o'ylaydi faqat.
Ahillikka putur yetyapti.

Ko'zimiz yosh, qalbimiz og'rir,
Xayollarda faqat bir savol:
“Inson bugun o'zgardimi yo,
Yoxud rangin yo'qotdi dunyo”.

Odamlarda qolmadi vijdon,
Bir-birining sirin sotyapti.
Ko'rolmaydi baxtli kunlarin,
Har lahzasi shunday o'tyapti.

Ishonaman, albatta, bir kun,
Baxt bor sepin keladi yoyib.
Qalbimizdan g'am-u anduhlar,
O'sha paytda bo'ladi g'oyib.

Ishonaman, shunday bo'ladi...

DAYDI SHAMOLLAR

Yana o'sha daydi shamollar,
Uchiradi bodom gullarin.
Qurbaniga aylanar, essiz,
Kutmagandi kulfat kunlarin.

Nega o'sha daydi shamollar,
Xayollarim uchirib ketdi.
Gumonlar-u shubha qoldirib,
Umidlarim qaylarga eltdi?

Ayting, menga daydi shamollar,
Nima uchun shoshasiz buncha?
Menga mehmon bo'lmay turingiz
Orzularim ushalgunicha!

Iltimosim, daydi shamollar,
Bizning ko'chalarda yelmangiz.
Hayot sizsiz go'zalroq, nogoh
Yuraklarni chil-chil qilmangiz.

Yana o'sha daydi shamollar,
Uchiradi bodom gullarin.
Qurbaniga aylanar, essiz,
Kutmagandi kulfat kunlarin.

BAHOR KELGANIDAN BERADI DARAK

Ochilganda tog'da qizil lolalar,
O'ynashib terishar sho'x-sho'x bolalar,
Qiz-juvon kuylasa alyor, yallalar,
Bahor kelganidan beradi darak.

Qaldirg'och qaytganda izlab quyoshni,
Quvonchga to'ldirar qari-yu yoshni,
Ahil qilsa agar ikki dindoshni,
Ko'klam kelganidan beradi darak.

Qaynasa qozonda totli sumalak,
Aylansa atrofda o'ttiz hur malak,
Osmonda ko'rinsa serrang kamalak,
Bahor kelganidan beradi darak.

Teng kunda aylansa quyoshi, mohi,
Gullardan egilsa daraxtlar shoxi,
Ayol-u qizlar kiysa atlas-u shoyi,
Ko'klam kelganidan beradi darak.

SIZNI MADH ETMASAM

Qo'limga qalamim oldim-da, asta
Sizni madh etmasam yuragim xasta.
She'rlarim – dilnoma, navo – guldasta,
Dunyoda mehribon – yagonam onam.

Ranjitib qo'ysam gar ko'nglimda qayg'u,
Ko'zimga bir lahza kelmaydi uyqu,
Qalbimning to'rida bir ajib tuyg'u,
Eng yaqin sirdoshim, hamxonam – onam.

O'zingiz umidim – borim bo'lasiz,
Chindan suyuk vafodorim bo'lasiz,
Yo'llarimga intizorim bo'lasiz,
Hayotim mazmuni, ishonchim – onam.

Sizga atab bitay betakror doston,
Poyingizga to'shay go'zal guliston,
Yaratay siz uchun bexazon bo'ston,
Umrimning bezagi, quvonchim – onam.

ONAJONIM

Onam – mehri ummonim,
Eng qadrli insonim.
Allohim mo'jizasi,
Suyukdan suyuk jonim.

Onajonim yagonam,
Uyimiz quyoshisiz.
Iqbolimiz kuldirgan,
Ko'rayin ko'zyoshisiz.

BAHOR

Olam ochib gulchiroy,
Misli yangi hilol oy,
To'lib oqdi daryo, soy,
Keldi maftunkor bahor.

Gullar terdim men asta,
Onam uchun guldasta,
Kelajakka payvasta,
Keldi maftunkor bahor.

Olamga nur to'ldirib,
Quvontirib, kuldirib,
Qalblarni inontirib,
Keldi maftunkor bahor.

ONAM

Sizga talpinaman hamisha, har dam,
Qadri balandlikda tengsiz, yagonam,
Umidbaxsh jondoshim, aziz hamxonam,
Suyangan tog'imsiz, sirdoshim onam.

Siz borsiz – har makon behisht misoli,
Siz yorsiz – sadoqat, vafo timsoli,
Mehrdan yaralgan o'zbek ayoli,
Dardlarimga darmon, darddoshim onam.

Sizning yoningizda g'am-tashvish netar,
Bilmayman, tarqalib qaylarga ketar,
Kulsangiz, bu boshim osmonga yetar,
Qalbimdag'i so'nmas quyoshim, onam!

BUVIJON

Biz uchun qiladi eng yaxshi tilak,
Barchamizga har dam mehribon yurak,
Kecha-kunduzimda hamisha kerak,
Buvijonim, doim bo'lsin sog'-omon!

Oqartirdik, mana, sochlarini ham,
Bir lahza bermadik ular uchun dam,
Ko'rayapmiz bizlar mehrini baham,
Buvijonim, doim bo'lsin sog'-omon!

Tanlasharlar doim to'g'ri yo'l bizga,
Eng yaxshi tilagim – kirsinlar yuzga,
Duogo'ylar har vaqt zor o'g'il qizga,
Buvijonim, doim bo'lsin sog'-omon!

BAHOR KELDI

Erta tongda ko'klam to'lishdi,
Buni ko'rib qalbim yorishdi,
Yosh-u qari xursand bo'lishdi,
Bahor keldi, ey aziz do'stlar!

Daryolarda suv to'lib oqar,
Quyosh asta jilmayib boqar,
Bu tabiat insonga yoqar,
Bahor keldi, ey aziz do'stlar!

Ko'klamlarga yetmaganlar bor,
Dilini tig'lab azobla zor-zor,
U kunlar hech qaytmasin zinhor,
Bahor keldi, ey aziz do'stlar!

Yeting shunday kunlar qadriga,
Bo'ling malham inson dardiga
Quvonch bering olam ahliga,
Bahor keldi, ey aziz do'stlar!

O'ZBEKLAR

Tarixi dunyoni solgan hayratga,
yetadi hamisha ezgu niyatga.
Ajdodlari ruhi undar g'ayratga,
To'maris avlodi bo'lgan o'zbeklar.

Bizni lol qoldirar har dam, har ishda,
Faxr-u g'urur tuyar maqtov, olqishda,
Mehnatdan tolmaydi hattoki qishda,
Temurning yurtdoshi bo'lgan o'zbeklar.

Bu davlat kundan-kun gullab-yashnaydi,
Yoshlari ertani o'ylab yashaydi,
Avlodlar mardona qadam tashlaydi,
Navoiy bobosi bo'lgan o'zbeklar.

IBRAT IZDOSHLARI

Umidimiz ertaning,
O‘zbekiston yoshlari.
Jahonni lol qoldirgan,
Ibratning izdoshlari.

O‘rganamiz yetti til,
Ochiladi qulf-u dil,
Intilishni shior bil,
Biz Ibrat qondoshlari.

Ibratdan ibrat olib,
Yangi Vatan quramiz.
Xalqimizdir hur, g’olib,
Olg‘a shaxdam yuramiz.

Ibrat mangu yashaydi,
Qalblarda har dam hayot.
U quyoshga o‘xshaydi,
Nur-ziyosi umrbod!

MENING PREZIDENTIM – MENING FAXRIM

Yurtiga jonin berar,
Xalqiga ibrat bo‘lar,
Barchani birdek ko‘rar,
Omon bo‘lsin, Yurtboshim.

Besh tashabbus tilida,
Qancha maqsad dilida,
Fidoyilar elida
Qahramon har yurtdoshim.

Qandayin soz islohot,
Qayon boqsang, o‘zgarish.
Buyuk davlat qurishdan,
Bor ekanmi ulug‘ ish.

Bizlar zukko yoshlarmiz,
Qalblari quyoshlarmiz.
Yangi renessansni
Shaxdam-shaxdam boshlarmiz.

ZILOLA

Juda shirin farishta,
Ozoda-yu sarishta,
Mohir, zukko har ishda,
Erka singlim, Zilola.

Sen mening baxt-quvonchim,
Ishonganim, ishonchim,
Suyanganim, suyanchim,
Erka singlim, Zilola.

Sensiz hayot bema'no,
Hammadan o'zing tanho,
O'qigin faqat a'lo,
Erka singlim, Zilola.

Biram shirin so'zlaring,
Kulib turar yuzlaring,
Doim chaqnoq ko'zlaring,
Erka singlim, Zilola.

SO'NGGI QO'NG'IROQ

Tovushlari naqadar yangroq,
Ko'zlarda nam, qalblarda titroq,
Endi do'stlar, ketarmiz yiroq,
Jarangladi, so'nggi qo'ng'iyoq.

O'tib ketdi qancha oy-u yil,
Maktab tomon oshiqardi dil,
Ko'z yoshisiz ketmoqlik mushkul,
Jarangladi, so'nggi qo'ng'iyoq.

Tashlab endi shaxdam qadamni,
Kelajakka, olg'a intiling!
Joylab dilga eng buyuk ahdni,
Ibratga chin izdoshlik qiling!

AKA

Siz mening ishongan tog'imsiz, aka,
Yonma-yon yursak xush chog'imsiz, aka,
Hech qachon jonini ayamaydigan
Mening qahramonim, borimsiz, aka.

Siz borsiz hayotim mazmunli, shodon,
Quvonch quchgan singlingiz baxtli inson,
Hamisha g'amxo'r-u tengsiz mehribon,
Siz mening nomus-u orimsiz, aka.

Har bir so'zingizdan olaman o'rnak,
Sizsiz ushalmaydi hech orzu-tilak,
Doimo sog'inib talpinar yurak,
Mehrimga tashna-yu, zorimsiz, aka.

Otamning o'rniga ota o'zingiz,
Quloqqa aytgan bu so'zingiz,
Har vaqt yorug' bo'lsin nurli yuzingiz,
Tolmas kuch-u madadkorimsiz, aka.

KAMALAK

Jilolanar yetti xil
Yorqin, rangli kamalak.
Yayraydi yorishib dil,
Misli go'zal hur-malak.

Jamlangan moviy, yashil,
Pushti, sariq, siyohrang.
Quvontiradi ko'ngil,
Tengsiz go'zal, rang-barang.

Bo'y cho'zibdi kamalak,
Shoshilmasdan bir qarang.
Barcha shod bo'lsa kerak,
Atrof bo'ldi turfa rang.

BOG‘IMDAGI GULLARIM

Pushti sariq, siyohrang
Ochilibdi gullarim.
Ular juda rang-barang,
Yashnab ketar dillarim.

Ertalabdan suv quyib,
Har yaprog‘in silayman.
G‘unchasin rosa suyib,
Erkalayman, silayman.

Go‘zal husn-u ifori
Bahr-u dilim yayratar.
Kayfiyatim yuqori,
Ko‘nglim qo‘shtiq yaratar.

OTA-ONAM QADRI

Endi men hayotni anglab yetibman
Ota-onal qadrin kechroq bilibman,
Farzand bo'lib u uchun netibman.
Onamning ko'ngliga yoqolmay chiroq.

Tushimga kirsa-da nogahon otam,
Boshimdan silasa tikilib onam.
Erkalab desalar "Uxlagin, bolam"
Otam qadrin endi baland tutibman.

Yedirib-ichirib katta qilishdi,
Meni o'zlari-chun hayot bilishdi,
Orzularin, hatto ko'kka ilishdi,
Onam qadrin endi baland tutibman.

Otajonim, mayli, yonimda emas,
Erkalab, jon qizim, ovunchim demas.
Ular bizlar kabi ovqat-tuz yemas,
Otam qadrin endi baland tutibman.

Allohga aytaman ming bor shukrona,
Onam bor men uchun tengsiz, yagona,
Jannatim farishtam misli durdona,
Onam qadrin endi baland tutibman.

O'ZBEKISTON

Noming har dam bo'lsin tillarda doston,
Bordir senda go'zal bog'lar-u bo'ston,
Vatanim, men uchun misli guliston,
Gullagin, yashnagin, ey O'zbekiston!

Ajdodlar nomlari so'nmas hech qachon,
Temurlar Vatani budir Turkiston,
Biz uchun otasan, onasan har on,
Gullagin, yashnagin, ey O'zbekiston!

Chindan yuksalyapsan, keldi hur zamon,
Ne'matlarga boysan, to'kin dasturxon,
Xalqing intilmoqda yaxshilik tomon,
Gullagin, yashnagin, ey O'zbekiston!

QUYOSH

Erta tongdan qalblarga quyosh,
Baxt, muhabbat hadya etadi.
Xushnud kular, barcha – yosh,
Dillarimiz quvontiradi.

Yoritadi butun olamni,
Olib ketar barcha alamni.
Mayin nuri ila allalab,
Mehnat uchun chorlar odamni.

Men ham erta tongda turibоq,
Oshiqaman quyosh mehriga
U ham deydi: “Menga kulib boq,
Ulashaman baxt-quvonch senga”.

NAVOIYNI UNUTISH BIZLAR UCHUN YOT

Soat millaridek tez o'tar yillar,
Ko'z ochib-yumguncha o'tdi asrlar.
Navoiy navosi yashar barhayot,
Navoiyni unutish – bizlar uchun yot.

Uning har bir so'zi durdona, hikmat,
Biz uchun merosi eng oliy himmat.
Qilibdi-ku rosa xalq uchun xizmat,
Navoiyni unutish – bizlar uchun yot.

Ko'p zahmat chekkandi hayot yo'lida,
“Xamsa”ni yozganda turkiy tilida.
Ezgulik bor edi uning dilida,
Navoiyni unutish – bizlar uchun yot.

Navoiy qalblarda har dam yashaydi,
Uning merosini yoshlar asraydi,
Bobomiz o'gitin qalbda saqlaydi,
Navoiyni unutish – bizlar uchun yot.

MEHR NIMA?

"Mehr nima?" – sizga savolim,
O'ylab javob topolmaganman.
Nima ekan, o'ylab hayronman,
Mehr izlab yurgan insonman.

Mehr misli quyosh taftimi
Qalblarimiz quvontirguvchi?
Mehr asli inson qadrimi
Yuraklarni orziqtirguvchi?

Mehr berish oson emasmi,
Ko'ngillarni o'ksintirishdan?
Mehr berish yaxshi emasmi,
Yuraklarni og'rintirishdan?

Keling, do'stlar, bir-birimizga,
Mehr tuhfa qilib yuraylik.
Baxt ulashib, qalblarimizga,
Mehr berish sirin bilaylik.

USTOZIM

Ilk marta qo'limga tutqazib qalam,
Yozish-chizishlarni o'rgatgan sизsiz.
Men uchun qiynalib, tortib ko'п alam,
Bilimingiz bergen mehribonimsiz.
Rahmatimdir yozgan har satrim, so'zim,
Doimo sog' bo'ling, aziz ustozim.

Siz men uchun mayoq ilmi ziyoda,
Martabangiz bo'lsin bundan ziyoda,
Sizni e'zozlaymiz har dam, har onda,
Hech ham kam bo'l mangiz ikki dunyoda.
Sizning davomchingiz bo'laman o'zim,
Doimo sog' bo'ling, aziz ustozim.

Onamdayin dardkash, sirdoshhsiz menga,
Har bir aytgan so'zingiz oltinga teng-a.
Deysiz-ku bo'linglar sodiq Vatanga,
Bor kuchingiz bo'lsin butun jon-tanga.
Sizgadir hurmatim, siz-chun bor mehrim,
Doimo sog' bo'ling, aziz ustozim.

RAZOLATNI YENGAR ADOLAT

Inson nima uchun yashaydi?
Nima uchun kerak bu hayot?
Qalblar nima uchun yashnaydi?
qay eshikdan topaylik najot?

Nega kerak rango-rang olam,
Qushlar sayrashi-yu, bulbullar ohi?
Nega kerak, aytin, ey do'stlar,
Daraxtlarning mevali shoxi?

Nega kerak do'st-u o'rtoqlar,
Tashlab ketsa bir kun, baribir?
Nega kerak go'zal yoronlar,
Aldab ketar seni u axir?

Nega kerak soylardagi suv,
Darding olib ketolmasa ham.
Nega kerak bizlar-chun yozuv,
Bor alaming aytolmasa ham.

Nega kerak totli ne'matlar,
Nafs ham sira to'lmayapti-ku.
Nega kerak bizga mehnatlar,
Birimiz ko'p bo'lyapti-ku!

Razil odam shunday savolni,
Qilib olgan o'ziga shior.
Shunday deya barcha insonni,
Aldab yurar, qani nomus-or?

Uning xayollari yaxshimas,
Razolat bor yovuz qalbida.
Yolg'onchilik hech kanda qilmas,
Yomonlik bor hissiz ko'nglida.

Sodda inson do'st bilib uni,
Ishonadi bu yolg'oniga.
Hikmat deya har bir so'zini,
Tez ilinar har tuzog'iga.

Bunday inson faqat biz uchun,
Tilab turar yovuzliklarni.
Go'zal hayotimiz buzilishi-chun,
O'ylab topar yomonliklarni.

Keling, do'stlar, barchamiz birga,
Razolatni quvib solaylik.
Baxt ulashib go'zal qalblarga,
Mehrimizni sovg'a qilaylik.

MENING BURCHIM

Burchimdir a’lo o‘qish,
Vatanimni gullatish,
Turli-tuman sohada,
O‘z bilimim ko‘rsatish.

Orzularim limmo-lim,
Ezgu istak qalbimda.
Maftunkor buncha olam,
Niyatlar ko‘p ko‘nglimda.

Tashlab shaxdam qadamni,
Yurtimni obod etay.
Xushnud qilib onamni,
Ko‘ngillarin ko‘taray.

Orzu maqsadlar sari,
Intilay hech ham tolmay.
Ushalar shunda bari,
Mayliga hordiq olmay.

Ibrat bobomga o‘xshab,
Bo‘lay yetuk, barkamol.
Yetti tilni o‘rganib,
Etayin barchani lol.

Shunda Vatan oldida,
Bo‘ladi yorug‘ yuzim.
Eng kerakli vaqtida,
Turaman, albat, o‘zim.

MUNDARIJA

Vatanim	3
O'zbekiston yoshlari	4
Zulfiya	5
Mard o'g'lonlar	6
Bo'stonliq	7
Tasodif	8
O'zbek	9
Yomg'ir	10
"Bugun baxtdan mastman..."	11
Qo'rqaman	12
Andijonga sayohat	13
Asira	14
Tabrik	15
Ona	16
Do'stlarim	17
Shukrona qiling	18
Kapalak	19
Orzularim	20
Onam tabassum qilsa	21
Hayit ayyom muborak	22
Namangan	23
Ilhomim	24
Do'stimga	25
Bugun boshqacha	26
Ona tilim	27

Shunday kunlar keladi bir kun	28
Ishonaman	29
Daydi shamollar	30
Bahor kelganidan beradi darak	31
Sizni madh etmasam	32
Onajonim	33
Bahor	33
Onam	34
Buvijon	35
Bahor keldi	36
O'zbeklar	37
Ibrat izdoshlari	38
Mening Prezidentim – mening faxrim	39
Zilola	40
So'nggi qo'ng'iroq	41
Aka	42
Kamalak	43
Bog'imdag'i gullarim	44
Ota-onam qadri	45
O'zbekiston	46
Quyosh	47
Navoiyni unutish bizlar uchun yot	48
Mehr nima?	49
Ustozim	50
Razolatni yengar adolat	51
Mening burchim	53

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3 (50'zb)

R 40

R 40 Rustamjonova, Odina

Orzularim [matn]: *she'rlar/Odina Rustamjonova.*

– Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2024. – 56 b.

ISBN 978-9910-9372-9-3

Adabiy-badiiy nashr

ODINA RUSTAMJONOVA

ORZULARIM

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

“ADABIYOT NASHRIYOTI” MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



“MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.